

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

60310700 – Siyosatshunoslik bakalavriat ta'lif yo'nali shining malaka talablari

Toshkent – 2023



ISHLAB CHIQILGAN:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil «7» 08 dagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”,
“Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari
klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi),
kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va
rasmiy meyoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60310700 – Siyosatshunoslik</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1	<i>60310700 – Siyosatshunoslik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanishi.....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60310700 – Siyosatshunoslik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1	<i>60310700 – Siyosatshunoslik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2	<i>60310700 – Siyosatshunoslik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3	<i>60310700 – Siyosatshunoslik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4	<i>60310700 – Siyosatshunoslik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60310700 – Siyosatshunoslik</i> ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	6
2.1..	Umumi kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	9
2.3.2.	<i>60310700 – Siyosatshunoslik</i> ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....	9
2.3.3.	<i>60310700 – Siyosatshunoslik</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasining tuzilishi	9
	Bibliografik ma’lumotlar	11
	Kelishuv varog’i	12

1. 60310700 – Siyosatshunoslik bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60310700 – Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi oliy ta’limning o‘quv reja va fan dasturi asosida amalga oshiriladi, uning nazariy va amaliy mashg‘ulotlarini to‘liq o‘zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o‘tgan shaxsga «bakalavr» malakasi (darajasi) hamda oliy ma’lumot to‘g‘risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjat(lar) beriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 60310700 – Siyosatshunoslik talim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60310700 – *Siyosatshunoslik* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalarini uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatlari davlat organlari;
- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatlari davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60310700 – Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 60310700 – Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60310700 – Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi – fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, siyosiy partiylar, nodavlat notijorat tashkilotlarining boshqaruv organlari, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlili bilan shug‘ullanuvchi aqliy markazlar, siyosiy tahlil ekspert guruhlari, siyosiy konsalting, siyosiy marketing bilan bog‘liq kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60310700 – Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- O‘zbekiston Respublikasi mudofaa tizimi, davlat xavfsizligi xizmati, milliy gvardiya, ichki ishlar organlari va ularning ilmiy-tadqiqot hamda aqliy markazlari;
- davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari (vazirliklar, qo‘mitalar, agentliklar, viloyat, shahar va tuman hokimliklari);
- xalqaro tashkilotlar, xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlar xizmatchisi, siyosiy menejment sohasi;
- siyosiy texnolog, saylov kampaniyalarining menejeri, siyosatshunos-lingvistik tahlilchi va ekspert hamda jamaotchilik bilan aloqalar bo‘yicha menejer;
- nodavlat-notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institatlari;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi va uning hududiy bo‘limlari;
- Ijtimoiy himoya milliy agentligi va uning hududiy bo‘limlari;
- xususiy sektorlardagi siyosiy konsalting xizmatlari;

1.2.3. 60310700 – Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *davlat-fuqarolik xizmatini ko‘rsatish;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *harbiy faoliyat.*

1.2.4. 60310700 – Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.

60310700 – Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Tashkiliy-boshqaruv va davlat-fuqarolik xizmati faoliyatida:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga;
- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslary bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo‘lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyatga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- sog’lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- muassasa, ilmiy-tadqiqot markazlari, tuman, shahar, viloyat hokimliklari bo‘linmalari, sho‘balari, yoshlari tashkilotlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi hududiy bo‘limlarining nizomlaridan kelib chiqadigan amaliy faoliyatni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot, korxona, jamiyat va davlat boshqaruv idoralarini strategik rivojlantirishda xorijiy va milliy-siyosiy bilimlarni boshqaruv tizimiga qo‘llagan holda boshqarishni tashkil etish;
- vazirliklar, davlat qo‘mitalarining siyosiy istiqboldagi rejalarini ishlab chiquvchi tahlilchi-ekspertlar guruhi faoliyati, siyosiy partiylar markazi, viloyat, shahar va tuman kengashlari xizmatchilari, rahbar kadrlari sifatida faoliyat olib borishda o‘zi ishlayotgan bo‘linmalar tashkiliy tuzilmalarini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borish, ish faoliyatiga innovatsiyalarni qo‘llash, xorijdagi siyosiy fanlar yutuqlarini ish jarayoniga olib kirish, mehnat resurslaridan ratsional foydalanish, mehnatni rag‘batlantirishning KPI (samaradorlikni baholash mezonlari) yangicha usullarini boshqaruv jarayoniga olib kirish;
- mehnat faoliyatida “raqamli boshqaruv” jarayonini qo‘llash, ish faoliyatda zamonaviy boshqaruv usullari hamda jamoa bilan ishlar tizimini tashkil etish, xodimlarni rag‘batlantirish jarayonini oshirib borishning yangicha kreativ usullarni boshqaruv jarayoniga olib kelish va tatbiq etish;
- ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Harbiy faoliyatda:

- O‘zbekiston Respublikasining harbiy siyosatini mazmun-mohiyatini bilish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini tizimli tahlil etish;
- xavfsizlik va strategik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati borasidagi konseptual bilimlarni o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llay olish;
- mintaqqa va xalqaro miqyosidagi harbiy tadqiqotlar faoliyati haqida nazariy bilimlarni egallash;
- xalqaro miqyosidagi harbiy majoralarning tabiatini anglash va kasbiy faoliyatida milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan tahlil etish;
- ichki va tashqi siyosatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf va tahdidlarni baholash va ularni ko‘lamini tizimli tahlil etish ko‘nikmasini shakillantirish orqali o‘z-o‘zini takomillashtirish borish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- empirik-siyosiy tadqiqot metodologiyasiga ega bo‘lish, bu bilimlarni nazariy va amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llay olish;
- muammo bo‘yicha ilmiy-teknikaviy ma’lumotlarni to‘plash, saralash va qayta ishlash asosida ma’lumotlarni tizimlashtirish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (ta’lim yo‘nalishi xususiyatlariga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish;

ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etish hamda ilmiy, tahliliy ommabop nashrlarda maqolalar bilan qatnashish;

ilmiy va ilmiy-uslubiy faoliyat turlari bo'yicha axborot-resurs kataloglarini tuzish va ulardan foydalanish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirot etish;

zamonaviy siyosiy jarayonlarda dolzarb bo'lgan tadqiqot natijalaridan xabardor bo'lish, ularni milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan qo'llay olish;

siyosiy fanlar sohasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda ilg'or ilmiy-tadqiqot natijalarni va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

2. 60310700 – Siyosatshunoslik ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

– davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

– mantiqiy fikrasharlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;

– xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

– axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

– sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

– ta'lim yo'nalishi ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallahash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va o'quvlarni shakllantirishi; ta'lim yo'nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishini;

– tegishli bakalavriat yo'nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishni;

– tahlil, tizimli tahlil tushunchalarining mazmun-mohiyatini, obyekti va predmeti, siyosiy tahlil usullari, ularning o'ziga xos jihatlari, siyosiy tahlil usullarini qo'llash mexanizmlarini ahamiyatini;

– davlat huquq nazariyasining tarixi, predmeti, funksiyalari, davlat haqidagi ta'limotlar, davlatning funksiyalari, davlat mexanizmi, huquqning mohiyati, prinsiplari va funksiyalari, manbasi (shakli), huquq ijodkorligi, huquqiy munosabatlari, huquqni amalga oshirishini;

– siyosatshunoslikka kirish fanning obyekti va predmeti, maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan uzviy bog'liqligi, siyosatshunoslikning fan sifatida shakillanishi jarayoni, tadqiqot metodologiyasi, usullari, siyosatshunoslikning klassifikatsiyasini;

– jahon siyosiy-huquqiy fikrining paydo bo'lishi, rivojlanish bosqichlarini;

- qiyosiy konstitutsiyaning nazariyasi, xorijiy davlatlar konstitutsiyalarining o‘ziga xos siyosiy tahlilini;
- O‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatini o‘tash va davlat-xizmat munosabatlarining tahlili va personal boshqaruvda inson omilini baholash metodologiyasi hamda istiqbolli kadrlar zaxirasi bilan ishlash tizimini;
- amaliy siyosatshunoslikning tadqiqot usullari, bosqichlari va tarkibiy qismlari hamda saylov kampaniyalarini o‘tkazish texnologiyalarini bilish va qo‘llashni;
- xalqaro munosabatlarning rivojlanish qonuniyatlari, asoslari va tamoyillarini, zamonaviy xalqaro munosabatlarda geoijqtisodiy va texnologik omillarni hisobga olishni;
- siyosiy sotsiologiyaning darajalari va usullari, ijtimoiy institutlar, siyosiy ijtimoiylashuvning kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- Sharq va G‘arb mutafakkirlari qarashlarida hokimiyat masalasi, hokimiyatni amalga oshirish xususiyatlari va hokimiyat va din munosabatlari hamda legitimlik va legallikni tarkibiy tuzilishini bilishi;
- geosiyosatning tadqiqot metodlari, klassik va zamonaviy geosiyosiy maktablar tahlili, jahon geosiyosiy tizimida Markaziy Osiyo davlatlarining rolini kasbiy faoliyatda qo‘llay olishini;
- zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimida O‘zbekiston Respublikasining ishtirokini milliy manfaatlar nuqtayi nazardan qo‘llay olishni;
- siyosiy texnologiyalarning zamonaviy siyosiy jarayonlarga tutgan o‘rni hisobga olib, tashkiliy boshqaruvda foydalanishni;
- jahon siyosatining paradigmalariga tayangan holda O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy jahon siyosatidagi o‘rni anglashni;
- davlat boshqaruvida siyosiy qarorlar qabul qilishning ahamiyati va uni xususiyatidan kelib chiqib boshqaruv faoliyatida qo‘llashni;
- siyosiy konfliktlarni anglash va baholash hamda yechimini topish usullarini kasbiy faoliyatda foydalana bilishi;
- “qiyosiy siyosatshunoslikning usullari, qiyosiy siyosatshunoslikda “keys” “field research” usullarini siyosiy madaniyatlarni qiyoslash jarayoniga tadbiq etish borasida *ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.*

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahshni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallahshi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahshga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

2.3.1. Kvalifikatsiya: siyosatshunos, siyosiy tahlilchi.

2.3.2. 60310700 – Siyosatshunoslik ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlар va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4860	162
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	690	23
Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15

2.3.3. 60310700 – Siyosatshunoslik bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r	Fanning malakavi y kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamani ng hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	4860	162	
1.01	UYTB104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	RARB104	Raqamli axborot texnologiyalari	120	4	2
1.03	FALB104	Falsafa	120	4	2
1.04	URTB104	O‘zbek (rus) tili	120	4	2
1.05	XJTB104	Xorijiy til	120	4	1
1.06	DINB204	Dinshunoslik	120	4	4
1.07	DXNB106	Davlat va huquq nazariyasi	180	6	1
1.08	SIKB106	Siyosatshunoslikka kirish	180	6	1
1.09	SHTB110	Siyosiy huquqiy ta’limotlar tarixi	300	10	1,2
1.10	SMAB106	Siyosiy madaniyat, mafkura va antropologiya	180	6	1
1.11		Qiyosiy konstitutsiya	180	6	2
1.12	DXPB210	Davlat xizmati va personal boshqaruv	300	10	2,3
1.13	AMSB206	Amaliy siyosatshunoslik	180	6	3
1.14	XMNB210	Xalqaro munosabatlar nazariyasi	300	10	3,4
1.15	SISB210	Siyosiy sotsiologiya	300	10	3,4
1.16	KROB210	Kratologiya	300	10	3,4
1.17	GEOB208	Geosiyosat	240	8	3,4
1.18	XAAB306	Xavfsizlik asoslari	180	6	5
1.19	SITB306	Siyosiy texnologiyalar	180	6	6
1.20	JASB310	Jaxon siyosati	300	10	5,6
1.21	SITB310	Siyosiy tahlil	300	10	5,6

1.22	SQQB406	Siyosiy qarorlar qabul qilish	180	6	7
1.23	SIKB406	Siyosiy konfliktologiya	180	6	7
1.24	QISB406	Qiyoziy siyosatshunoslik	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1200	40	4,5,6,7
		Jami	6060	202	
		Malakaviy amaliyot	690	23	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	450	15	8
		Jami	1080	38	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

OKS 01.040.01


Guruh T 55

Tayanch so'zlar va iboralar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari; siyosatshunoslik fanining predmeti va metodi, hokimiyat va hokimiyat munosabatlari nazariyasi, siyosiy hayot, uning asosiy belgilari, siyosiy tizim, siyosatning institutsional asoslari, siyosiy munosabatlar va jarayonlar, siyosatning subyektlari, siyosiy yetakchilik va siyosiy uslub, siyosiy madaniyat, siyosiy ong, siyosiy mafkuralar, siyosiy o'zgarishlar nazariyasi; Qadimgi Sharq va antik davr, o'rta asrlar va Uyg'onish davrining siyosiy-huquqiy an'analari, hozirgi zamon siyosiy ta'limotlari, XX asr siyosiy tafakkurining asosiy maktablari va yo'nalishlari, O'zbekistondagi siyosiy qarashlar tarixi, siyosatshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari, Shimoliy Amerikadagi siyosatshunoslik tarixi, G'arbiy Yevropa siyosatshunostligining asosiy bosqichlari, Rossiya va MDH mamlakatlarida siyosiy fanlar; siyosiy normalar, ichki va tashqi siyosatning mutanosibligi; siyosiy ekspertiza; xalqaro munosabatlar ishtirokchilari, xalqaro tizimlar, xalqaro o'zaro ta'sirlar (nizolar va hamkorlik), yangi dunyo tartibiga muqobillik; siyosiy tahlil usullari, siyosiy jarayonni bashorat qilish va modellashtirish (o'ziga xos xususiyatlar, texnologiya, vositalar), siyosiy konsalting; konfliktlar tipologiyasi, siyosiy konfliktlarning xususiyatlari, siyosiy konfliktlarning sabablari, siyosiy konfliktlarning oldini olish, siyosiy konfliktlarning boshlanishi, tartibga solinishi va hal etilishi; siyosiy qarorlarni qabul qilish.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda
kadrlar iste'molchilari


ISHLAB CHIQILGAN:




M.O'.

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'lifni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish markazi



O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi
Markaziy Kengashi



O'zbekiston jurnalistika va
ommaviy kommunikatsiyalar
universiteti

